

**O'zTTSA tizimida 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi:**

***Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish***

ISO 9001 sifat menejmenti tizimi dunyodagi eng mashhur sifat menejmenti tizimi standarti bo‘lib, dunyo bo‘ylab 180 mamlakatlaridagi milliondan ortiq tashkilotlarni sertifikatlashtirgan. ISO 9001 standarti asosan boshqarish mexanizmidir. Ushbu standartning maqsadi - xatolar va nuqsonlarni kamaytirish, yo‘q qilish va oldini olish.

Davlat dasturining 18-bandiga asosan, Vazirlik va idoralarda ish yuritish va ma'muriy boshqaruv jarayonlari sifatini takomillashtirish belgilangan. Bunda Vazirlik va idoralar faoliyatiga sifat menejmenti tizimining ISO 9001 xalqaro standartini joriy qilish maqsadida, 67 ta vazirlik va idoralar ro‘yxati shakllantirildi.

Xalqaro sifat menejmenti tizimini joriy etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar reja loyihasi namuna shaklida ishlab chiqilib, ro‘yxatga asosan vazirlik va idoralarga kelishish hamda tasdiqlash uchun kiritildi.

Bugungi kunda 25ta vazirlik va idoralar tomonidan ISO 9001 xalqaro standart talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimini joriy etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi hamda Hidrometeorologiya xizmati markazlari faoliyatiga ISO 9001 xalqaro standart talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimi joriy etilgan.

***Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 mlrd AQSh dollariga yetkazish***

O‘zbekiston Respublikasida chiqarilayotgan mahsulotlarning xorijiy davlatlarda raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini oshirish hamda ko‘lamini kengaytirish, yuzaga kelayotgan texnik to‘siqlarni bartaraf etishda tadbirkorlik sub'ektlariga ishlab chiqarishda va xizmat ko‘rsatishda xalqaro standartlarning o‘rni katta.

Hozirda Korxonalarining eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishlari uchun, xalqaro standartlarni joriy etish va xalqaro sertifikatlar olishda doimiy ravishda ko‘maklashilmoqda.

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan **1 259** ta yirik eksportchi korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq menejment tizimlarini joriy etilganligi va joriy etishga ehtiyoji mavjud korxonalarining **tarmoqlar kesimidagi tahlili o‘tkazildi.**

Taxlil natijasida 434 ta korxonada xalqaro menejment tizimlari joriy etilganligi aniqlandi.

Shuningdek, xalqaro menejment tizimlarini joriy etishga ehtiyoji mavjud 179 ta korxonada hamda “O’zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi bilan 150 ta korxonada xalqaro sifat menejment tizimlarini joriy etish bo‘yicha tarmoq jadvallari ishlab chiqildi.

Viloyat hokimliklari bilan korxonabay ishlarni tashkil etish natijasida 295 ta korxonada xalqaro sifat menejment standartlarini joriy qilishning tarmoq grafiklari tasdiqlandi.

*qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati 143 ta, qurilish materiallari 65 ta, to‘qimachilik 55 ta, kimyo 9 ta, mebel-yog‘ochsozlik 7 ta, ipakchilik 4 ta, elektrotexnika 3 ta, charm-poyabzal 3 ta, mashinasozlik 3 ta, farmatsevtika 2 ta, parrandachilik 1 ta.*

Shuningdek, joriy yilning birinchi choragida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining jami 205 ta tuman va shaharlarida yirik eksportyor, strategik investitsiya loyihalari bo‘yicha ishga tushirilgan, maxalliyashtirish dasturi asosida faoliyat yuritayotgan va past quvvatda ishlayotgan korxonalar hamda tadbirkorlik sub’ektlarining 1666 nafar vakillari uchun xalqaro standartlarni mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etishning istiqbollari, xorijiy davlatlarda mahsulotlar sifati va xavfsizligiga qo‘yilgan texnik talablarning mazmun-mohiyati va xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmenti tizimlarini joriy etishning avfzalliklari mavzulari bo‘yicha seminar-treyninglar tashkil etildi.